

**SIYOSIY PARTIYALAR O'RGANISHINING MUDDAOSI**

**Xusanov Sardor Murod O'g'li**

*ChDPU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda boshqa rivojlangan davlatlar singari siyosiy partiyalar nechoqlik ahamiyatli ekani haqida so'z yuritiladi. Ularning ma'naviy g'oyalari ochib berishga harakat qilinadi. Shu bilan birgalikda, siyosiy partiyalarning tahlili ushbu maqolada yoritilib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Siyosat, partiya, demokratik jarayonlar, vakillik organi

**Abstract:** This article talks about how important political parties are in Uzbekistan, like other developed countries. Attempt are made to revel their spiritual ideas. Along with this, the article the analysis of political parties is covered in this article.

**Keywords:** Politics, party, democratic prosess, representative body.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikdan so'ng qo'lga kiritgan yutuqlarini sarhisob qiladigan bo'lsak, olib borayotgan barcha sohalardagi islohotlar uzoqni ko'zlab, "o'zbek modeli"ning tarkibiy qismi bo'lgan "bosqichma-bosqichlik" tamoyili asosida olib borilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Islohotlar dastlabki bosqichda mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa, bu vazifa asosan ado etilgach, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish sari odim tashlandi. Mamlakatimizda turli siyosiy institutlar, jumladan, siyosiy partiyalarning faoliyati tubdan o'zgarib ular uchun zaruriy huquqiy asoslar yaratildi.

Bu jarayonlarning bugungi kun nuqtai nazaridan baholar ekan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Hozirgi sharoitda siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy partiyalar va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining ayniqsa saylov jarayonlarida xohish-irodasi va fikrini ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositasiga aylanishi alohida ahamiyat kasb etadi" deb ta'kidlagan edi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Qaysi partiyaga mansubligidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimizni birlashtiradigan yagona va mushtarak maqsad – bu jonajon O'zbekistonimiz, uning buyuk kelajagidir. Ayni shu maqsad hammamizni ona yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilishga da'vat etadi", deb ta'kidlagan.

Jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning o'rni haqida to'xtalishdan oldin keling jamiyat nima ekanligi haqida to'xtalsak:

Jamiyat (arabcha umumiyy) – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar majmuasi, o'zida moddiylik va ma'naviylikni, obyektivlik va subyektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradigan tushuncha. Jamiyat g'oyat murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, u odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va hokazo munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, jamoa, millat, din, davlat, axloq va hokazolarning majmuidir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishida esa, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda siyosiy partiylar roli masalasini tahlil etishda quyidagi yo'naliishlarda ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Birinchidan, davlatning tatalitarizmdan bozor munosabatlariga o'tish davrida amalga oshirilgan islohotlarning dastlabki bosqichidagi strategik vazifalari, bu boradagi jahon mamlakatlarining tajribalari va uni O'zbekistonda namoyon bo'lish xususiyatlari ilmiy tadqiqotlarda mustaqil mavzu sifatida o'rganilmasdan qolmoqda. Umuman, demokratik qadriyatlarga o'tishning bugungacha dunyo mamlakatlari tajribalariga asoslanib, uchta shakllari mavjudligini qayd etib o'tish mumkin. Bular quyidagilar:

- an'anaviy;

- inqilobiy;
- evolutsion

Ularning har uchala shakli ham demokratik qadriyatlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirdi va bugun ular dunyo mamlakatlarini rivojlanishiga zamin tayyorladi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda demokratik jarayonlar bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Demokratik jarayonning tayyor andozasi yo‘q, hatto uning eng “original” hisoblanadigan shaklini ham u yoki bu mamlakat hayotiga joriy qilib bo‘lmaydi. Chunki, bunday jarayon mamlakatning ichki imkoniyatlari asosida o‘ziga xos va o‘ziga mos tarzda shakllanib boradi.

Demokratiyani dunyoning u yoki bu mamlakatida amalga oshirilgan shaklini “andozasini” ikkinchi bir mamlakatga “ko‘chirish”, “joriy” qilish bilan bog‘liq xatti-harakatlar mamlakat taraqqiyotini bir necha yillar orqaga surib yuborishi mumkin.

Uchinchidan, demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda milliy mentalitetni hisobga olish haqidagi ilmiy asoslangan konsepsiylar mavjud. Milliy mentalitet o‘zgarmaydigan omil emas, uni takomillashtirish orqali millat ham rivojlanib boradi bu ma’lum.

Ammo, siyosat, ong va siyosiy madaniyatda u qanday kechadi va demokratik jarayonlarga nechog‘lik tasir o‘tkazishi mumkin, uni millatimiz va mamlakatimizning ko‘p millatlilik sharoitida qanday amalga oshirishiga va uning natijalarini prognozlashtirish ham hali Politologiyamizda “tesha tegmagan” mavzu bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy partiyalarning shakllanishi, ularning o‘zaro munosabatlari, jamiyat siyosiy hayotidagi o‘rnini masalalarini o‘rganish ham dolzarb mavzu sifatida qolmoqda. Bu mavzu bugun faqat kundalik matbuotlarda yoritilishi darajasida qolib ketmoqda.

Xususan, biz mavjud siyosiy partiyalar haqida fikr yuritganimizda Prezidentimizning ular faoliyati o‘sib kelayotgan ehtiyojlardan orqada qolayotganligi haqida bildirgan o‘rinli tanqidiy fikrlariga asoslangan holda ilmiy tadqiqotlarni olib borishimiz lozim bo‘ladi.

Beshinchidan, bugun milliy istiqlol g‘oyasini falsafiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganish, uni yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish borasida bir qator nazariy hamda amaliy ishlar bajarilmoqda. Lekin hali uni siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganish va tahlil qilishga bag‘ishlangan mavzular himoya qilinmadи.

Aslida, siyosiy va demokratik institutlar tizimi faoliyati, ularning manfaatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishda milliy istiqlol g‘oyasi inson mafkuraviy qarashlarini shakllantirishda nazariy manba sifatida katta ro‘l o‘ynab kelmoqda. Jamiyat hayotida, ayniqsa demokratik qadriyatlarga asoslangan jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlarda fikrlar va qarashlar turli-tumanligi tamoyiliga amal qilish asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo, ular yagona maqsad, strategik vazifa manfaatlarini amalga oshirishda o‘zida aks ettirgan mafkuralarga uyg‘unlashib boradi. Aks, holda jamiyatning “boshi” ziddiyatlar va qarama-qarshiliklardan chiqmay qolishi mumkin bo‘ladi. Ularning avj olmasligining imkoniyati, kerak bo‘lsa muhim mexanizmi bu fikrlar va qarashlar turli tumanligini o‘zida mujassamlashtirgan umummanfaatlarga xizmat qiluvchi g‘oya atrofida uyushish hisoblanadi. Bu nafaqat bizning mamlakatimizning bugun demokratik jamiyatga o‘tish davri uchun zarur, xuddi shuningdek taraqqiy etgan mamlakatlarning ham barqaror taraqqiyotga erishish uchun zarur bo‘lgan shart hisoblanadi.

Xuddi ana shu nuqtai nazaridan ham milliy g‘oya mamlakat ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi mafkurasini belgilab olishda roli va o‘rnini siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganish ham dolzarb mavzu hisoblanadi.

Oltinchidan, milliy xafsizlikni ta’minlash har bir mustaqil davlat uchun hayot-mamot masalasi hisoblanadi. Uni ta’minlash bir qator omillarga bog‘liq. Jumladan, aholi o‘rtasida ogohlik ruhiyatini shakllantirish, mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlash, yoshlarda Vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish kabi o‘ta muhim masalalarni siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o‘rganish lozim. Bugun bu mavzularda ko‘plab maqolalar e’lon qilinmoqda. Ammo, ularni chuqr analiz qilish siyosiy tahlil qilish, mavjud muammolarni hal qilishning mamlakatimiz taraqqiyoti uchun

nechog'liq amaliy ahamiyatga ega ekanligiga bag'ishlangan birorta ham dolzARB mavzudagi ilmiy ish himoya qilinmadI.

Aslida, ular siyosiy fanlarning eng muhim mavzularini tashkil qilishi lozim. Bundan tashqari ushbuni mavzuni o'rganishga juda ko'p mutaxassislar bilan bir qatorda harbiylarni, ichki ishlar va xavfsizlik tizimida ishlayotgan xodimlarni ham keng jalg qilishga e'tiborni qaratish lozim.

Respublikamiz siyosiy hayotida hozirda mavjud siyosiy partiyalar o'tish davridagi ijtimoiy-siyosiy murakkabliklarga qaramay o'zining davomiy faoliyatini saqlagan holda yildan-yilga faollashib bormoqda.

O'tgan yillar davomida ba'zi siyosiy partiyalar maqsadlari va dasturiy vazifalari yaqinligini sezgan holda birlashish yo'lini tutgan bo'lsalar, ayrimlari konstitutsiyaviy tuzumga zid faoliyatlarI uchun rasman tugatildi. Demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga solishda milliy qonunchilikimiz sohaga doir qonunlar va qonunosti hujjatlari mavjud. Lekin, qonunlar dogma bo'lmay jamiyat va davlat taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanishini inobatga olsak bu sohadagi qonunchilikni yanada tadqiq etishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbli shundaki, siyosiy partiyalar aholining huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tashini hamda ularning aholining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi, fuqarolarning siyosiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga doir faoliyatini, qonunchilik va ijro hokimiyatiga ta'sir etishini tahlil qilishdan iboratdir.

#### Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A.O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi va Prezident devonining O'zbekiston mustaqillinining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.-Toshkent.: 2007 -B.32
2. Shavkat Mirziyoyev siyosiy partiyalar rahbarlari bilan uchrashdi (<https://president.uz/uz/2819>)
3. <http://forum.oyina.uz/uz/teahause/1576>